# Ekspres pochta xizmati (EMS)
# Smart Acceptance
# (Easy Advance Acceptance) qo‘llanmasi




우정사업본부
KOREA POST



우정사업본부 KOREA POST

# Ekspres pochta xizmati (EMS)

# Smart Acceptance (Easy Advance Acceptance) qo‘llanmasi -우즈베크어-

**Smart Acceptance**
**bilan xalqaro pochta xabarlarini jo‘nating!**



## EMS Advance Acceptance xizmatidan qanday foydalanish kerak (smartfon orqali)

Easy Advance Acceptance onlayn rejimidan foydalanganda 5% chegirma olishingiz mumkin.




## Pochtani qabul qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar

- Agar siz quti sotib olmoqchi bo‘lsangiz, iltimos, orqa tomonda joylashgan namuna qutilarini tekshiring va sizga kerak bo‘lgan quti raqamini xodimga ayting.
- Buyumlaringiz quti ichida shikastlanmasligi uchun zarbani yutuvchi materiallaridan (penoplast, havo-pufakchali plyonka va h.k.) foydalangan holda qadoqlang.
- Xizmat haqi vazn yoki hajmga qarab belgilanadi, qaysi biri og‘irroq bo'lsa, shunga qarab hisoblanadi.

## Taqiqlangan buyumlar

- Taqiqlangan buyumlar qabul qilinmaydi.
- Agar taqiqlangan buyumlar topilsa, pochta darhol jo‘natuvchiga qaytariladi. Bunday holda, qaytarib jo‘natish uchun to'lov olinadi.
- Taqiqlangan buyumlar ro‘yxatiga parfyumeriya, lityum batareyalar, butan yoqilg'isi, elektron mahsulotlar, yonuvchan moddalar, giyohvand moddalar, yaxshi qadoqlanmagan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi, lekin ular bilan cheklanmaydi.



## 1. QR kodini skanerlang yoki m.epost.go.kr saytiga o‘ting.

m.epost.go.kr



## 2. EMS xalqaro pochta tugmasini bosing.



## 3. Ekspres pochta xizmati (EMS) tugmasini bosing.



4. Jo‘natuvchining manzilini, qabul qiluvchining manzilini va jo‘natilayotgan buyum tavsifini kiriting. Manzil va buyum tavsifi ingliz tilida yozilishi kerak.



5. Jo‘natuvchining ma'lumotlarini kiriting. Manzil uchun, agar sizda Janubiy Koreya manzili bo‘lsa, uni ko‘rsating. Agar yo‘q bo‘lsa, mehmonxona manzili va mehmonxona telefon raqamingizdan foydalaning va siz bilan bog‘lanish uchun qo‘shimcha manzilni kiriting. Agar siz Koreyani 3 kun ichida tark etishni rejalashtirmoqchi bo‘lsangiz, siz bilan bog‘lanish mumkin bo‘lgan elektron pochta manzilini kiriting.

Manzil qidirish uchun shu yerni bosing.



## 6. Iltimos, manzil topuvchidan foydalanib manzilingizni kiriting.



# 7. Iltimos, batafsil manzilingizni kiriting.



8. Jo‘natuvchining manzilini va pochta indeksini to‘g‘ri hamda aniq kiriting. Keyin jo‘natuvchining ismini (majburiy), mobil telefon raqam yoki uy telefon raqamini (majburiy) va elektron pochtani (ixtiyoriy) kiriting.



## 9. Qabul qiluvchining ma'lumotlarini kiriting.



## 10. Mamlakatni tanlang.



11. Mamlakatni tanlagandan so'ng, siz pochta indeksi va manzilni tanlashingiz yoki ularni qo'lda kiritishingiz mumkin. Agar pochta indeksingiz mavjud bo'lmasa, manzilingizni kiriting.



## 12. Viloyat, shahar va pochta indeksini tanlang.



13. Ingliz tilida va raqamli belgilar yordamida qabul qiluvchining ismini (majburiy), manzilini (majburiy), telefon raqamini (ixtiyoriy) va elektron pochtani (ixtiyoriy) kiriting.



# 14. Tarkib bo'limini to'ldiring (bojxona deklaratsiyasi)



## 15. Deklaratsiya ma'lumotlarini kiriting va ma'lumotni to'g'ri kiritish uchun HS kodini qidiring.



# 16. HS kodlarini qidiring.



## 17. Miqdori, qiymati va sof vaznini kiriting.



18. Bir nechta mahsulot turlari uchun har bir mahsulotni alohida kiritish uchun "Qo'shish" tugmasini bosing.



19. A'zo bo'lmaganlar uchun shartlarga rozilik bildiring. Kvitansiya raqamini, jo'natuvchining ismini yoki telefon raqamini va ilova parolini eslab qoling, chunki ular a'zo bo'lmagan foydalanish tarixi haqidagi ma'lumotlarni olish uchun zarur.



20. Qabul qilish uchun mas'ul xodimlarga ushbu ekranni taqdim eting va qulay boshqaruv uchun skrinshot oling.

